

NOVERBAL VOSITALAR PSIXOLINGVISTIKASI

Omonova Zebinisobegim Muzaffar qizi

Farg'ona davlat universiteti

Filologiya fakulteti o'zbek tili yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada inson muloqotida so'zlar va tana harakatlarining o'zaro mutanosibligi, psixolingvistik jarayonlarning noverbal signallar orqali namoyon bo'lishi tahlil qilinadi. Shuningdek, tana tilining inson ruhiyatidagi o'rni va madaniy farqlri o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Psixolingvistika, tana tili, verba, noverbal vositalar, muloqot, signal, xarakter, madaniyat

Bugungi tilshunoslik va psixologiya rivojlanayotgan kunimizda insonlar o'rtasidagi muloqot, verbal va noverbal vositalar chuqur o'rganilmoqda. Psixolingvistika - nutqning hosil bo'lishi, shuningdek, nutqni idrok etish va shakllantirish jarayonlarini ularning til tizimi bilan o'zaro bog'lanishi holatida o'rganuvchi fandır. Psixolingvistika inson nutqiy faoliyati modelini va psixofiziologik nutqiy shakllanishini ishlab chiqib, ularni psixologik eksperimentlar yo'li bilan tekshiradi. Tadqiqot manbayi

bo'yicha tilshunoslikka yaqin bo'lgan Psixolingvistika o'z tekshirish usullari bo'yicha psixologiyaga yaqin turadi. Unda o'zaro bog'lanishli eksperiment "semantik differensial" usullar qo'llaniladi. Ko'pincha muloqot deganda faqat



so'zlarni tushunamiz. Biroq, psixolingvistik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, axborotning atigi 7-10 foizi so'zlar (verbal) orqali, qolgan qismi esa ovoz ohangi va tana tili (noverbal) orqali yetkaziladi. M. Saidxonov "O'zbek tilida ishoralarning verballashuvi va matniy xususiyatlari"1 disertatsiyasida (imlo) noverbal vositalarni

a) milliy xarakterdagi noverbal vositalar;

b) individual noverbal vositalar;

d) professional noverbal vositalarga ajratadi. Psixolingvistika nuqtai nazaridan tana tili - bu ongosti jarayonlarining tashqi ko'rinishidir.

XX asr boshlarida Charlz Davrin "Emotsiyalarning insonlarda va hayvonlarda ifodalanishi" 2 asarini yozdi va u tana tili sohasida ko'p

1 M.Saidxonov O'zbek tilida ishoralarning verballashuvi va matniy xususiyatlari.

2 Allan Piz "Tana tili"

zamonaviy tadqiqotlarga qiziqishga sabab bo'ldi. Charlz Davrinning ko'p g'oyalari va uning kuzatishlari orqali bugun butun dunyo tadqiqotchilari tomonidan tanlangan yo'nalish bo'lib, psixolingvistika sohasi bo'yicha olimlar tomonidan mingdan ortiq noverbal signal va belgilar aniqlana boshladi. O'zbek olimlari tomonidan ham qator tadqiqotlar amalga oshiriladi, xususan, M. Saidxonov3 psixolingvistikaga doir ilmiy ishlar, kuzatuvlar olib boradi va noverbal vositalarni ishlatilishiga ko'ra quydagicha tasnif etadi: 1) ko'rsatuvchi belgilar;

2) izohlovchi- ta'kidlovchi belgilar;





3) ramziy belgilar; 4) tasvirlovchi belhilar; 5) emotsional belgilar.

Psixolingvistika bu ma'lumotlarni qanday qayta ishlashimizni o'rganadi. Qo'llarga qarab inson xarakteristikasini o'rganish mumkun. Agar bosh barmoqlar chiqarilgan holda cho'ntakka solingan bo'lsa, bu u inson qat'iyatli va yetakchiligidan darak beradi.

Tana tili har doim ham universal emas. Psixolingvistika tana tilini

3 M.Saidxonov O'zbek tilida ishoralarning verballashuvi va matniy xususiyatlari.

o'rganishda madaniy kontekstni ham hisobga oladi. Aksariyat xalq va elatlar, millatlar aloqalashuvida ishlatiluvchi, ular uchun tushunarli bo'lgan noverbal vositalarni baynalmilal noverbal vositalar jumlasiga kiritsak, to'g'ri bo'ladi. Ko'z bilan aloqa: G'arbmadaniyatida bu ishonch belgisi bo'lsa, ayrim Sharq madaniyatlarida kattalarga tik qarash hurmatsizlik sanaladi. G. Xasanovning "Dialogik nutqda noverbal vositalarning o'rni va ularning pragmatik xususiyatlari"⁴ dissertatsiyasida O'zbeklarda aloqa- aralashuvida noverbal vositalarni quydagicha ajratadi:

1. Ishoraviy noverbal vositalar;
2. Mimik noverbal vositalar;
3. Badan va gavda harakatlari. Xulosa

Tana tili - bu inson ruhiyatining "ochiq kitobi" dir. Psixolingvistika nuqtai nazaridan verbal va noverbal muloqotni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Muloqotda muvaffaqiyatga erishish uchun nafaqat so'zlarni to'g'ri tanlash, balki tanamiz berayotgan signallarni ham nazorat qilish o'ta muhimdir.

4 . .G.Xayrullayeva "Dialogik nutqda noverbal vositalarning o'rni va ularning pragmatik xususiyatlari





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.M.Saidxonov O'zbek tilida ishoralarning verballashuvi va matniy xususiyatlari.
- 2.G.Xayrullayeva "Dialogik nutqda noverbal vositalarning o'rni va ularning pragmatik xususiyatlari
- 3.G.Olimova "O'zbek tilida psixolingvistik jihatdan samarali muloqotni ta'minlovchi omillar".
4. Allan Piz "Tana tili"
5. Sirlibilim "Psixolingvistika sirlari"

